

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda o'yin vositalaridan foydalanish.

Musirmonova Shaxnoza Shuxratovna

Angor pedagogika kolleji

Maxsus fan o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda o'yin vositalaridan foydalangan holda mashg`ulotlarni tashkil etishning mazmun mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: O'yin, harakatli o'yin, axloq, ijodiy o'yin, axloqiy tarbiya, madaniyat.

Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, uning aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o'rinda turar ekan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish bolaning ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish bolaning ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Bolani maktab ta'limga axloqiy tarbiyalashda turli xil vositalar bo'lib ular ichidan eng muhimi bu o'yinladir.

O'yin bolalar xayotida shunday ko'p qirrali faoliyatdirki, unda bolalarga mansub bo'lgan mehnat ham, narsalar haqida tafakkur qilish ham, san'at ham, xayol, dam olish va xushchaqchaqlik, axloqiy manbalari ham mujassamlangandir, ya'ni mana shu proseslarni barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'yin bolalar talab qilayotgan darajadagi to'la qonli xayotni ta'min eta oladi. O'yinning bolalarni maftun etuvchi kuchi ham shundadir. O'yin faqat tashqi muxitdagil narsa va xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha yoshdagidagi bolalarga ta'lim - tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha dagi ta'lim - tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila biliishga bog'liqidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinlarining birinchi harakteri xususiyati, o'yin tematikasini xaddan tashqari sermazmunligi boyligidir. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yin faoliyatlarining ikkinchi xarakterli xususiyati boalalr o'yinlarida milliy tuyg'ularning aks etishidir. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinlarining uchinchi xususiyati - o'yin jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishidadir. O'rta va katta maktabgacha yoshidagi bolalar Vatanimizning poytaxti Toshkentni juda yaxshi biladilar va uni sevadilar, shu tufayli o'yinchoklardan zo'r maroq va g'urur bilan yasaydilar. Bundan tashqari, turli millat bolalari tusida yasalgan qo'g'irchoqlar yasashga intiladilar.



Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinining keyingi xususiyati barcha jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, xis - tuyg'u irodasi, xarakteri va qobilyatining namoyon bo'lishidir. Shunday qilib, bolaning o'yin faoliyati uni har timonlama shakllantiruvchi, barcha psixik jarayonlari va psixologiya xususiyatlarini rivojlantiruvchi etakchi faoliyat bo'lib hisoblanadi. Dastavval extiyojning o'zi nima ekanligini tushunib olaylik. Inson barcha boshqa organizmlar singari o'z xayotini saqlab qolishi uchun har doim o'zidan tashqaridagi muxitda mavjud bo'lgan turli narsalarga muxtoj bo'ladi. Mana shu inson organizmining nimalargadir muxtojligi extiyojni keltirib chiqaradi. Demak, extiyoj deganda biz organizmimizning qandaydir bir narsaga nisbatan bo'lgan muxtojligini tushunamiz.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlaydi, Shu orqali bolalar uyinining mehnat bilan uyg'unlashib ketishiga erishadi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmi o'yinlarining hamma xilini syujetli- rolli, kurilish dramalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o'ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o'yin harakatlarini o'rgatadi, tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarda haqqoniylig printsipiga rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo'llab- quvvatlaydi.

Ijodiy o'yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya'ni mashg'ulotdan tashqari hamma vaqtida tashkil etilaveradi.

Rejimda qoidali o'yinlar katta o'rinni egallaydi. Mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtida o'ynaladigan didaktik va xarakatli o'yinlar muxim rol uynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshiradi. Harakatli o'yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o'yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruxcha bilan o'tkazilishi kerak. O rta va katta guruxlarda turli xil sport o'yinlari o'tkazib turiladi. Hamma o'yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaktida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatları tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xoxlagan rasmlarini chizadilar, xoxlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xoxlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtida bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllaniga yordam beradi.

Bolalar bilan amalgalashishiga qarab shakllarni qilishni takozzo etadi.

Bolalar bog'chasi rag'batlantirish shakllari: maqtaSh, ma'qullaSh, bolaga o'yinda boSh rolni berish. Jazo shakllariga esa tanbeh, ma'qullamaslik, yaxshi qurgan o'yinchog'ini bermaslik kiradi. Jismoniy jazo qat'yan man etiladi. Jazoning bosh vazifasi yuzaga kelgan nizolarni bartaraf etish, yangisining yuzaga keliShiga yo'l qo'ymaslik.



Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1. Axloqiy tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ya'ni pedagog va bolalarning o'zaro munosabatlari bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan qaraShga asoslaniShi kerak.
2. Pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda bolaning o'zi ijobiy odatlarni egallab borsin, salbiy xususiyatlarni yo'qotishga intilsin.
3. Axloqiy tarbiya bolaning ijobiy xulqiga asoslanib amalga oshirilishi zarur.
4. Bolani tarbiyalash uchun yaxshi hissiy muhit yaratish kerak. Jazolash va qo'rqtish bilan ijobiy axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.
5. Bolada axloqiy odatlarni shakllantirish uchun undagi ma'lum odatlarga asoslaniSh kerak.
6. Ijobiy odatlarni yuzaga keltirish uchun qiziqarli faoliyatlarni tashkil etish kerak. shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi faoliyatni taShkil etish lozim. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his- tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni axloqiy tarbiyalashga doir o'yinla 1- o'yin ."Yaxshi so'zlar" biz bolalarda yaxshi niyat, bir-birimizga ijobiy munosabatni tarbiyalaymiz; nutqda foydalanish qobiliyatini mustahkamlash "yaxshi so'zlar" yetakchi (kattalar) syujetli rasmlarni navbat bilan chiqaradi. O'yining barcha ishtiokchilari rasmlarga qarashadi va qaysi birini aniqlaydilar "yaxshi so'zlar" ko'rindigan vaziyatda aytish kerak. Har bir to'g'ri javob uchun uy egasi chip beradi. Kim eng ko'p chiplarni to'plagan bo'lsa, u g'alaba qozonadi. O'yin bizga oila a'zolariga nisbatan g'amxo'r munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. Uyda qanday yordam beraman? . Biz maslahat uchun birinchi marta uy xo'jaligining har xil turlari bilan syujetli rasmlardan foydalanamiz. Keyinchalik siz rasmsiz o'ynashingiz mumkin. Bolalar navbatma-navbat uyda qatnashgan uy yumushlarini nomlashadi. Shuningdek, ular oddiygina kuzatgan, lekin unda ishtiok etishni xohlaydigan faoliyatni nomlashga ruxsat beriladi. Eng ko'p holatlarni nomlagan kishi g'alaba qozonadi. O'yin bizga oilamizga qiziqishni, oila a'zolariga hurmatli munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.

2-O'yin "Do'stona oila" . Bunda bolalar o'z oila a'zolari haqida gapirish qobiliyatini rivojlantiradilar. O'yin boshida barmoq o'yini o'ynaladi. "Ahil oila" : (bolaning barmoqlari mushtga siqiladi) Bu barmoq bobo (bosh barmog'i bukiladi); Bu barmoq buvisi (ko'rsatkich barmog'ini bukadi); Bu barmoq dada (qo'lning o'rtta barmog'ini egadi) Bu barmoq ona (qo'lning halqa barmog'ini egadi); Bu barmoq menman (kichik barmoq bukiladi) Bu mening butun oilam !!! (barcha barmoqlar ochilib, mushtga yopiladi) Boladan palma tanlash so'raladi (kartondan kesilgan) sevimli rang va "joylashish" uning bobosi, buvisi, otasi, onam va o'zim haqida (oila a'zolarining yuzlari bo'yagan doiralar). Biz xarakterning joylashishini barmoq o'yini haqida takroriy hikoya qilish bilan hamrohlik qilamiz "Do'stona oila".

Xulosa qilib aytganda har bir maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchillarni axloqiy tarbiyalashda ko'plab usul va metodlardan, videofilimlardan, mulifilimlar ko'rgazma qurollar, milliy an'analarimiz, bayramlarimizning roliklari va boshqa metodik vositalardan foydalanishimiz mumkin. Shu o'rinda aytish joizki har bir yosh avlodni qancha axloqiy tarbiyani to'g'ri berak biz tarbiyalayotgan kelajak avlod komil inson bo'ib yetishishi shubhasizdir. Maktabgacha yoshdagи bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va uni amalga oshirish vositalariMaktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya



mazmunini amalgaga oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda axloqiy tasawurlar va xatti-harakatlami tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobjiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Maktabgacha ta'limga muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalgaga oshiriladi.

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari televideniya, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasawurlarni ularga ongli ravishda tushuntirish dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalgaga oshiriladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'", hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" - Toshkent: O'zbekiston, 2019 yil.
2. Maktabgacha ta'limga tarbiyaning davlat standarti . 2020 yil
3. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yildigan Davlat talablari". Toshkent-2018 yil
4. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'limga vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018 yil
5. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent. O'zRMTV 2019 yil.
6. O. Xasanboyeva. "Maktabgacha ta'limga pedagogikasi". Toshkent- 2011.
7. F.Qodirova, Sh Toshpolatova, N. Qayumova, M.Zununova "Maktabgacha pedagogika". Toshkent -2019
8. Abramova G.S. Yoshga bog'liq psixologiya. - M.: Biznes kitobi, 2015. - 624 b.
9. Agapova I.Yu., Chexovskaya V.B. Bolalarni maktabga tayyorlash // Boshlang'ich maktab. - 2014. - No 3. - S. 19 - 20.
10. Azarova T.V., Bityanova M.R. Bolalarni maktabda moslashtirish bosqichida psixologning rivojlanish ishi

